
TYUTOR VA MENTOR KIM?

Otamirzayev Oybek Murodullo o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti tyutori

Tel: +998940626683

Email: otamirzaev2107@gmail.com

Annotatsiya: Talabalarda yaratuvchanlik hissini uyg`otish, ularni qiynayotgan masalalarga yechim berish instituti sifatida tyutorlik va mentorlik faoliyatining muhim ahamiyati va universitetda tutgan o`rni.

Kalit so`zlar: tutor, mentor, talaba, ta`lim, fan

Аннотация: Важное значение тьюторско-наставнической деятельности как института пробуждает в студентах чувство творчества, обеспечивает решение проблем, которые их беспокоят, и свое место в вузе.

Ключевые слова: тьютор, ментор, ученик, образование, наука

Abstract: The important importance of tutoring and mentoring activities as an institution to awaken a sense of creativity in students, to provide solutions to the issues that are bothering them, and its place in the university.

Keywords: tutor, mentor, student, education, subject

Tyutor – oliy ta`lim muassasasining vakili sifatida talabalarni kundalik turmush tarzini tartibli yo`lga qo`yilishida, bo`sh vaqlarini mazmunli tashkil etilishida, ta`lim olishi uchun to`la imkon yaratib beruvchi, ularda vatanga muhabbat tuyg`usini oshirishda hamda yoshlarni kelgusida yetuk kadr bo`lib, davlatimiz taraqqiyotiga xizmat qilishi yo`lida ta`lim-tarbiya beruvchi-ko`makchidir. Avvalgi guruh rahbarlari lavozimini yana takomillashtirilgan, keng huquq va majburiyatlar yuklangan shakli deyishimiz mumkin. Guruh rahbarliklari davrida asosan talabalar davomati doirasi bilan cheklangan bo`lsa, hozirgi tyutorlik faoliyati talabalar hayotida muhim o`rin tutmoqda. Xususan, ularga taalluqli oddiygina murojaatlardan to`murakkab yashash joyi hamda ish topishda ham o`z yordamini ko`rsatmoqda. Bu albatta talabalarda oldingidek passiv kayfiyatini emas, balki ularda daxldorlik hissi bilan doimo e`tiborda ekanligi, ular jamiyat rivojida muhim ekanligini anglashmoqda. Shu yo`lda bu institutning yaratilishi universitetlar rivojida muhim qadam bo`lgani rad etib bo`lmas o`zgarishdir.

Ba`zan talabalar, ayniqsa, birinchi bosqich va hatto katta kurslarda oliygohning shart-sharoitidan xabardor emasligiga guvoh bo`lamiz. Mana shunday paytda unga yo`l ko`rsatib turuvchi shaxs kerak bo`ladi. Talabalar turar joylari, axborot resurs markazi, talabaning darsdan bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yo`naltirilgan turli to`garak, klublar, sport majmuasi, oliygoh muzeyi, madaniyat va musiqa zallari va

boshqalar bilan yaqindan tanishtirish lozim. Yigit-qizlar dastlabki haftada qiziqishlari doirasida zarur binolar, shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib borishga erishish kerak¹. Bu bir haftalik davr, ya'ni "Tanishtiruv haftaligi" mobaynida yangi kelgan talabalarga, universitetda yaratilgan sharoitlar, imkoniyatlar, universitetning ichki-tartib qoidalari, o'qitish tizimi, imtihonlarni topshirish tartibi, o'qishni xorijiy mamlakatlarda davom ettirish, bo'sh vaqtlarida amaliyot-stajirovka o'tash yoki stipendiyalar nomzodlariga qo'yiladigan talablar va boshqa talaba uchun foydali masalalarga tushuntiriladi. Bu o'qish va izlanishlarini bir maromda tashkil etish va davom ettirish imkoniyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Bu yo`lda 200-300 talabaga biriktirilgan yagona tyutorni ham jismonan, ham ruhan imkoniyati yetmasligi mumkin. Shu sababdan, yuqori bosqich talabalari orasidan universitet hayotida faol, bilimdon talabalardan fakultetlar miqyosida mentorlar guruhi shakllanadi. Ular yirik tadbirlar, davra suhbatlarini tashkil etishda yoki o`zlashtirishi qiyin kechayotgan talabalarga fanlarni puxta egallashda o`z yordamlarini beminnat berishmoqda. Bilamizki, qator imtiyozlar asosida yoki tabaqalashtirilgan kontrakt asosida talabalar safiga qabul qilingan yoshlarni o`zlashtirishlari qolgan talabalarnikidan sustroq kechadi. Bu yo`lda talabalar kesimida alohida-alohida ishlashni talab etadi. Talabalarni mentorlarga biriktirilishi, ularni o`z tengqurlaridan o`rnak olishlarida, ularni bilan do`stona aloqa o`rnatish orqali o`rganilishi qiyin bo`lgan fanlarni puxta o`zlashtirishga muhim asos bo`lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://yuz.uz/uz/news/tyutor-kim>
2. <https://kun.uz/uz/news/2021/11/03/ozbekistonda-yoshlar-jinoyatchiligi-kolami-ortyapti-sabablar-haqida-tahliliy-suhbat>.
3. <https://lex.uz/uz/>
4. <https://edu.mininnovation.uz/>